

## IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLARGA MAJMUAVIY YORDAM KO'RSATISHNING SAMARALI MODELLARI

Qo'yliyeva Nigina Toshtemir qizi

**Annotasiya** Maqolada imkoniyati cheklangan shaxslarga nisbatan munosabatning rivojlanishi tarixi, bu kabi insonlarga jamiyatda ajratilgan makonga qarab turlicha modellarning mazmuni tahlil qilingan. Imkoniyati cheklangan shaxslar muammolarini hal qilishning yangicha tamoyillarini ishlab chiqish, ularni jamiyatga moslashtirish, bandligini ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish, abilitatsiya va reabilitatsiya qilish hamda himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyati bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** imkoniyati cheklangan shaxslar, ijtimoiy himoya, abilitatsiya, reabilitatsiya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.

Imkoniyati cheklangan shaxslarga kamsitish nazari bilan qarash muammosi insoniyatning butun tarixi davomida mavjud bo'lgan va bugun ham barham topmagan. Sog'liq jihatdan imkoniyati cheklangan shaxslarning jamiyat hayotiga integratsiyalashuvining muhim ijtimoiy-psixologik omillaridan biri jamiyatning - sog'lom insonlarning imkoniyati cheklangan shaxslarga munosabati bilan bog'liq. Jamiyatning ko'pchilik a'zolarida shakllangan imkoniyati cheklangan shaxslarga nisbatan noto'g'ri munosabat aksariyat hollarda jamoatchilik ongida sog'lig'i jihatdan imkoniyati cheklangan shaxslarning ijobiy timsoli shakllanmaganiga borib taqaladi.

Jamiyatda kishilarning imkoniyati cheklangan shaxslarga munosabatining rivojlanishi tarixida ular bilan muloqot va munosabat shakli va bu kabi insonlarga jamiyatda ajratilgan makonga qarab turlicha modellar shakllangan.

**“Bemor inson” modeli:** Ushbu modelga ko'ra imkoniyati cheklangan shaxslar bu – bemorlardir. Demak inson davolash ob'ekti sifatida qabul qilinadi. Ushbu modelga ko'ra bu insonlarga tibbiy xizmat ko'rsatilishi shart. Ta'lim nuqtai nazaridan esa ularning bilim olishi muhim emas. Imkoniyati cheklangan shaxslarni kasal sifatida ko'ruvchi jamiyatlar – ularga birgina tibbiy yordam va parvarish xizmatini taklif etishi va ularni davolashga intilishi mumkin. Ammo, ta'lim olish imkoniyati rad etiladi.

Zamonaviy jamiyatlarda ushbu model insonparvarlik g'oyalariga zid sanaladi va imkoniyati cheklangan insonning rivojlanishida sun'iy to'siq hosil qiladi.

**“Kemtik inson” modeli:** ushbu modelga ko'ra imkoniyati cheklangan shaxs kemtik-majruh mavjudot sanaladi. Buning oqibatida bu kabi insonlar munosib hayot



tarzidan mahrum bo'ladi. Bu ularning atrof-muhit bilan muloqotida yaratilgan sun'iy cheklovlarda ifodalanadi.

**“Jamiyatga tahdid” modeli:** imkoniyati cheklangan shaxslar jamiyat taraqqiyoti uchun tahdid tug'diradi, deb hisoblanadi (aqliy zaiflik, ruhiy muammolari bor insonlar). Bu munosabatdagi tubanlik shu qadar chuqurki imkoniyati cheklangan shaxslar nafaqat kasallik tarqatishi balki, “shumqadam” sifatida omadsizlik chaqiradi deb hisoblanardi. “Tahdid va omadsizlikni chaqiruvchi” bu kabi insonlardan o'zini himoyalash maqsadida aholi punktlaridan uzoqda chekka hududlarda qat'iy tartib o'rnatilgan yopiq muassasalar tashkil etilgan va ularni shu muassasalarga joylashtirishgan. Bu holatda ta'lim olish qat'iy man etilgan.

**“Rahm-shafqat ob'ekti” modeli:** bu model imkoniyati cheklangan shaxslarda shaxsiyat rivojlanishi va o'zini ro'yobga chiqarishga intilishiga katta ziyon etkazadi. Ushbu model doirasida insonga go'dakka munosabat qilingandek munosabat bildiriladi. Ular doim yosh boladek qolishi va rivojlanmasligi haqidagi stereotiplar natijasida shakllangan bu munosabat ayniqsa aqliy zaif insonlarga nisbatan kuchli kuzatiladi. Ushbu modelning bosh vazifasi bu kabi insonlarning atrof-muhitning yomon munosabatida alohida saqlash orqali himoyalashdir. Bu kabi insonlarga qulay shart-sharoitlar yaratish va ta'lim orqali rivojlanishi ikkinchi darajali sanaladi.

**“Rivojlanish” modeli yoki ijtimoiy model:** ushbu modelga ko'ra imkoniyati cheklangan inson ta'lim olish va rivojlanishga qodir deb hisoblanadi. Ushbu modelga ko'ra jamiyat bu kabi imkoniyati cheklangan bolalarning imkon qadar to'liq rivojlanishi uchun mas'uldir. Ushbu modelga ko'ra institutsional muassasalar so'nggi chora sanalib ilojisiz qolgan vaziyatdagina imkoniyati cheklangan shaxslar bu kabi muassasaga joylashtiriladi. Ushbu modeldagi ta'lim tamoyiliga ko'ra integratsiyalashgan ta'lim qo'llab-quvvatlanib imkoniyati cheklangan bolalar oddiy maktablarda oddiy tengdoshlari qatorida ta'lim oladi.[6, 52]

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, jahon hamjamiyatida ijtimoiy dunyoqarashning o'zgarishi natijasida inson omili ustuvor ahamiyat kasb etgan bir sharoitda imkoniyati cheklangan shaxslarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Ushbu davrda qabul qilingan xalqaro huquqiy hujjatlar imkoniyati cheklangan shaxslarni jamoatchilikdan ajratib qo'yish emas, balki ularning jamiyat bilan integratsiyasi va ijtimoiylashuvini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy model g'oyalarini o'zida mujassam etdi. Bu o'z navbatida imkoniyati cheklangan shaxslar muammolarini hal qilishning yangicha tamoyillarini ishlab chiqish, ularni jamiyatga moslashtirish, bandligini ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish, abilitatsiya va rehabilitatsiya qilish hamda himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadida maxsus tadqiqotlar olib borish zaruratini keltirib chiqardi.



Dunyoning ko'plab oliy o'quv yurtlari va ilmiy markazlarida imkoniyati cheklangan shaxslarga nisbatan munosabatning ijtimoiy model qonuniyatlarini amaliyotga tatbiq etish borasida ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirila boshlandi. Jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslarning jamiyat bilan integratsiyalashuvi uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashning ijtimoiy jihatlari ochib berildi, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun inklyuziv ta'limni amalga oshirish yo'llari ko'rsatildi. Bundan tashqari, ushbu sohada tibbiy-kasbiy-ijtimoiy reabilitatsiyani o'zaro uyg'unlikda olib borish, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun mos tushadigan yangi texnologiyalarni yaratish, assistiv texnologiyalarni yengillashtiradigan vositalarning ilmiy tadqiqot va konstruktorlik ishlanmalarini olib borish xususiyatlariga alohida ahamiyat qaratilgan yo'nalishlarda ham tadqiqotlar olib borilmoqda.

Imkoniyati cheklangan shaxslarning huquqlarini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish faqat maxsus xizmatlarni taqdim etishdangina iborat bo'lib qolmasdan, balki ularga kamsitish nazari bilan qarashga barham beruvchi chora-tadbirlar amalga oshirilishini, imkoniyati cheklangan shaxslarning fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari ta'minlanishini kafolatlovchi hamda bu boradagi to'siqlarni olib tashlovchi qonunlar, dasturlar qabul qilinishini ham nazarda tutadi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Pritchard, James B., In The Ancient Near East: Volume II. A New Anthology of Texts and Pictures. – Princeton, NJ: Princeton University Press, 1958. – P. 220–221.
2. Nussbaum, Martha C. Human Functioning and Social Justice: In Defense of Aristotelian Essentialism. Political Theory 20(2): – Cambridge, UK: Cambridge University Press, 1992. – P.202–246.
3. Карлсон Р., Батчер Д., Минека С. Анормальная психология. – Питер: СПб., 2000. – С. 1167.
4. Аль Фараби. Избранные трактаты. – Алматы: Гылым, 1994. – С. 294.
5. Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. –104 b.; Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.

